

UO'K:001.8:159.9

ILMIY METODLARNING TASNIFI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI

Saidikromova Mohigul Abdug'affor qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

Email: mohigul.saidikramova@gmail.com

Annotatsiya: *Ilmiy tadqiqotlarda to'g'ri metod tanlash tadqiqot sifatini va natijalar ishonchliligini belgilovchi muhim omildir. Ushbu maqolada ilmiy metodlarning tasnifi, ularning sotsiologiya va psixologiya fanlarida qo'llanilishi, samaradorligi va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, empirik va nazariy metodlarning uyg'unlashtirilishi orqali ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *ilmiy metod, empirik metod, nazariy metod, psixologik tadqiqot, sotsiologik tadqiqot, amaliy ahamiyat*

Саидикромова Мохигуль Абдугаффор кизи

Магистрант Наманганский государственный университет

КЛАССИФИКАЦИЯ НАУЧНЫХ МЕТОДОВ И ИХ ПРАКТИЧЕСКОЕ
ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация: *Правильный выбор научного метода в исследованиях является важным фактором, определяющим качество исследования и надежность полученных результатов. В статье рассматривается классификация научных методов, их применение, эффективность и практическая значимость в социологии и психологии. Также анализируются возможности повышения качества научного исследования через интеграцию эмпирических и теоретических методов.*

Ключевые слова: научный метод, эмпирический метод, теоретический метод, психологическое исследование, социологическое исследование, практическая значимость

Saidikromova Mohigul Abdugaffor kizi

master's student Namangan State University

CLASSIFICATION OF SCIENTIFIC METHODS AND THEIR PRACTICAL SIGNIFICANCE

Annotation: *The correct selection of scientific methods in research is a crucial factor determining the quality of the study and the reliability of its results. This article examines the classification of scientific methods, their application, effectiveness, and practical significance in sociology and psychology. It also explores the potential to enhance research quality through the integration of empirical and theoretical methods.*

Key words: *scientific method, empirical method, theoretical method, psychological research, sociological research, practical significance*

Kirish

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda sifat va natijalar ishonchliligi muhim o'rin egallaydi. Tadqiqot jarayonida metodlarning to'g'ri tanlanishi tadqiqotning samaradorligi va aniqligini belgilaydi. Ilmiy metodlarning tasnifi va ularning amaliy ahamiyati psixologiya va sotsiologiya fanlarida tadqiqot sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, tadqiqot jarayonida empirik va nazariy metodlarning uyg'unlashtirilishi, ularni tanlash mezonlari va qo'llash yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Ilmiy metodlarning tasnifi tadqiqotchiga turli ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Empirik metodlar orqali real hayotiy holatlar va kuzatuv natijalari o'rganilsa, nazariy metodlar tadqiqot mazmunini umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ilmiy

metodlarning amaliy ahamiyati nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki ularni real ijtimoiy va psixologik jarayonlarga tadbiq etishda ham namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarda metodologik yondashuvlarni to'g'ri tanlash va tasniflash tadqiqot sifatini oshirish, natijalarni ishonchli qilish va ularni amaliy faoliyatda qo'llash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy metodlarning tasnifi va amaliy ahamiyatini o'rganish zamonaviy ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

O'quv jarayonida ilmiy metodlarning tanlovi va qo'llanilishi tadqiqot sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Dunyo tajribasida ilmiy metodlarning tasnifi va amaliy ahamiyati ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Rus olimlaridan F.R. Filippov, M.N. Rutkevich, V.L. Livovskiy va G.F. Kusev ilmiy metodlarni tadqiqot jarayonida qo'llash, ularning samaradorligini aniqlash va natijalarni ishonchli qilish masalalarini o'rganishgan.

Shuningdek, AQSH olimi Richard I.M. "The Quality Movements in Higher Education in the United States" (1996) maqolasida ilmiy tadqiqotlarda metod tanlashning sifatga ta'siri va uni amaliy tadqiqotlarda qo'llash yo'nalishlarini tahlil qilgan. Rossiyalik olim Yegorova Y.A. (2008) esa ilmiy metodlarning tanlanishi va tadqiqot natijalarining ishonchliligi masalalarini chuqur o'rganib, metodologik tavsiyalar bergan.

Bangladeshlik olim Naureen Rahnema "Evolution of quality culture in an HEI: critical insights from university staff in Bangladesh" (2020) maqolasida ilmiy metodlarning amaliy ahamiyati, ularni uyg'unlashtirish orqali tadqiqot sifatini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Shu bilan birga, metodlarni to'g'ri tanlash psixologiya va sotsiologiya fanlarida empirik va nazariy ma'lumotlarni birlashtirish, natijalarni amaliy faoliyatga tadbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, ilmiy metodlarning tasnifi va amaliy qo'llanilishi nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki real tadqiqot natijalarini to'g'ri talqin qilish va ularni samarali qo'llash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotchilar tomonidan

metodologik yondashuvlarni to'g'ri tanlash va tizimli qo'llash zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada ilmiy tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan metodologik yondashuvlar muhokama qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ilmiy metodlarning tasnifi, ularning samaradorligi va amaliy ahamiyatini aniqlashdir. Tadqiqotda empirik va nazariy metodlar, shuningdek, ularning kombinatsiyalangan qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Metodologiya qismida quyidagi usullar qo'llanildi: Empirik metodlar: kuzatuv, eksperiment, intervyu va so'rovnomalar orqali real hayotiy holatlarni o'rganish; Nazariy metodlar: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish; Taqqoslash va sintez metodlari: turli tadqiqot natijalarini solishtirish, metodlarning samaradorligini baholash; Klassifikatsiya va tasniflash metodlari: ilmiy metodlarni turlariga ajratish va ularning amaliy sohalarda qo'llanishini aniqlash. Shuningdek, O'zbekiston va boshqa rivojlangan mamlakatlardagi ilmiy tadqiqot jarayonlari va metodologik yondashuvlar solishtirildi. Bu solishtirish natijasida ilmiy metodlarning tanlanishi va tasnifi tadqiqot sifatini oshirish va natijalarni ishonchli qilishga xizmat qilishi aniqlangan. Natijada, ushbu metodologik yondashuvlar ilmiy tadqiqot jarayonida metodlarni to'g'ri tanlash, ularni moslashtirish va amaliy faoliyatga tadbiq etish imkonini beradi. Shu bilan birga, ilmiy metodlarning tasnifi va ularning amaliy ahamiyati tadqiqot sifatini oshirish va natijalarni ishonchli qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Natijalar va ularning tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari oldiga ta'lim tizimini tubdan isloh qilish vazifasini qo'ydi. Qaror mohiyati O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida ta'limni zamon talablari bo'yicha

tashkil qilish hamda iqtisodiyot tarmoqlariga talab asosida kadrlar tayyorlashni maqsad qilib qo'ydi.

Ilmiy metodlarning tasnifi va ularning amaliy ahamiyati oliy ta'lim sifati bilan bevosita bog'liq bo'lib, har qanday ta'lim jarayonining samaradorligi tadqiqotda qo'llanilgan metodlarga tayanadi. Oliy ta'lim sifati nafaqat ta'lim mazmuni yoki moddiy baza bilan belgilanadi, balki ilmiy izlanishlarda, o'qitish jarayonida va baholash tizimida qo'llaniladigan metodlarning aniqligi, ilmiy asoslanganligi ham muhim rol o'ynaydi. Ilmiy metodlarning to'g'ri tanlanishi — o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish, talabalar fikrlash madaniyatini shakllantirish va mustaqil izlanishga yo'naltirishning asosiy omilidir.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida metodologik savodxonlik darajasi oshgan sari ta'lim sifati ham yuqori bo'ladi. Bugungi kunda ilmiy metodlar uchta yirik guruhga ajratiladi: empirik, nazariy va amaliy metodlar. Empirik metodlar yordamida real jarayonlar, hodisalar va faktlar tahlil qilinadi. Bu metodlar asosida so'rovnoma, suhbat, test, kuzatuv va eksperiment o'tkaziladi. Masalan, talabalar bilimni diagnostika qilishda so'rovnoma va test metodlarining o'zaro uyg'unligi real natijalarni olish imkonini beradi.

Nazariy metodlar esa empirik yo'l bilan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish uchun xizmat qiladi. Bu bosqichda ta'lim jarayonining qonuniyatlari, uning rivojlanish tamoyillari aniqlanadi. Amaliy metodlar esa nazariy bilimlarni real hayotga tatbiq etish, ya'ni o'quv jarayonida, laboratoriya mashg'ulotlarida, innovatsion loyihalarda foydalanish imkonini beradi. Aynan ushbu metodlar majmuasi ta'lim sifatini oshirishning amaliy mexanizmini shakllantiradi.

Ta'lim sifatini belgilovchi eng muhim jihatlardan biri — ilmiy yondashuvning amaliyot bilan uyg'unligidir. Shu ma'noda, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ilmiy metodlarning to'g'ri qo'llanilishi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, dars jarayonida interaktivlikni ta'minlaydi, muammoli vaziyatlarni hal qilishda tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Xususan, ilmiy metodlarning amaliy ahamiyati shundaki, ular ta'limni faqat nazariya darajasida emas, balki real ijtimoiy,

iqtisodiy va madaniy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganishga imkon beradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or davlatlarda oliy ta‘lim sifatini baholashda ilmiy metodlarga tayangan tizimlar asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqining “Bologna jarayoni” doirasida har bir oliy ta‘lim muassasasi ta‘lim sifatini mustaqil ekspertlar tomonidan baholash tizimini yo‘lga qo‘ygan. Bu baholash natijalari o‘quv dasturlarining yangilanishi, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ilmiy tadqiqotlar sifatini yaxshilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimi ham aynan shu yo‘nalishda izchil rivojlanib bormoqda. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifati ko‘rsatkichlarini aniqlash, reyting tizimini yaratish, o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini baholash bo‘yicha mezonlar ishlab chiqilmoqda. Bu jarayonda ilmiy metodlarning tasnifi bo‘yicha chuqur o‘rganishlar o‘tkazish, empirik ma‘lumotlarni tahlil qilish va ularni ta‘lim amaliyotiga tatbiq etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy metodlardan kompleks foydalanish oliy ta‘limda sifatni oshirishning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Chunki har bir metod o‘z navbatida ta‘lim jarayonining muayyan bosqichini yoritadi: empirik metodlar — faktlarni yig‘ish, nazariy metodlar — ularni tahlil qilish, amaliy metodlar esa — natijalarni real hayotda qo‘llash imkonini beradi. Shu tarzda metodlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda ishlaganda, ta‘lim jarayoni yaxlit tizim sifatida shakllanadi va natijadorlik ortadi.

Shu boisdan, ilmiy metodlarning to‘g‘ri tasnifi va amaliy qo‘llanilishi bugungi kunda oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda xalqaro reytinglarda O‘zbekiston oliygohlarining o‘rnini mustahkamlashda muhim strategik omil sifatida e‘tirof etiladi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ilmiy metodlar har qanday ilmiy izlanishning poydevorini tashkil etadi. Ular nafaqat tadqiqot jarayonini tartibga soladi, balki ilmiy haqiqatni izlashda tizimlilik, izchillik va ishonchlilikni ta‘minlaydi. Ilmiy metodlarning to‘g‘ri tanlanishi tadqiqot natijasining aniqligi, ishonarliligi va amaliy

qiymatini belgilovchi muhim omillardandir. Tasniflash jarayonida aniqlandi-ki, ilmiy metodlar o'z mohiyatiga ko'ra empirik, nazariy va amaliy guruhlariga ajratiladi. Empirik metodlar kuzatish, tajriba o'tkazish, so'rovnoma, test va eksperiment orqali faktik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Nazariy metodlar esa umumlashtirish, tahlil, sintez, induksiya va deduksiya orqali olingan ma'lumotlarga ilmiy asos beradi. Amaliy metodlar esa nazariy bilimlarni real hayotga tatbiq etish, ularni amaliyotda sinovdan o'tkazish bilan ajralib turadi. Ilmiy metodlarning amaliy ahamiyati shundaki, ular orqali olim yoki tadqiqotchi o'z g'oyasini aniq mezonlar asosida isbotlay oladi. Bu esa nafaqat ilmiy yangilik yaratish, balki ijtimoiy, pedagogik, psixologik va iqtisodiy sohalarda samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Har bir ilmiy metod bir-birini to'ldirib boruvchi mexanizm sifatida faoliyat yuritadi — bu ilmiy bilish jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi. Shu boisdan, zamonaviy fan rivojlanishida ilmiy metodlarning to'g'ri tanlanishi, ularning tizimli qo'llanilishi va natijalarni amaliyot bilan bog'lay olish layoqati muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy metodlardan oqilona foydalanish ilmiy tafakkurni chuqurlashtiradi, yangi g'oyalar paydo bo'lishiga turtki beradi hamda fan va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. To'raqulov, U. (2019). Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Jalilova, N. (2021). Ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Abdullayev, B. (2022). Empirik va nazariy tadqiqot metodlari: mohiyati va amaliy ahamiyati. – “Ta'lim tizimida innovatsiyalar” jurnali, №2.
4. Qodirov, R. Ilmiy tadqiqot asoslari va metodologiyasi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti, 2021.
5. (Ilmiy bilish uslublari, tahlil va sintez, induksiya-deduksiya, empirik tadqiqot metodlari keng yoritilgan.)

6. Karimov, B. Pedagogik va psixologik tadqiqot metodlari. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2018.
7. (Psixologiya sohasida ilmiy tadqiqotning nazariy va amaliy metodlari, statistik tahlil usullari berilgan.)
8. Popper, K. (2002). The Logic of Scientific Discovery. – London: Routledge.
9. Creswell, J. W. (2018). Research Design: Qualitative, Quantitative and Mixed Methods Approaches. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications.